



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 90 sahifa,
22-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



PEDAGOGIK KVALIMETRIYA ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING DIAGNOSTIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Pedagogik kvalimetriya bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy asoslardan biri hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi bo'lajak pedagoglarning diagnostik faoliyatini takomillashtirishda kvalimetrik yondashuvning imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-tahliliy, tizimli hamda kompetensiyaviy yondashuv metodlaridan foydalanildi. Natijada diagnostik madaniyatning tarkibiy komponentlari, pedagogik kvalimetriyaning baholash mezonlari hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini aniqlashga xizmat qiluvchi omillar belgilandi. Tadqiqot yakunida pedagogik kvalimetriya asosida diagnostik madaniyatni shakllantirish pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim omillardan biri ekanligi asoslandi.

Kalit so'zlar: pedagogik kvalimetriya, diagnostik madaniyat, bo'lajak o'qituvchi, kompetensiya, pedagogik diagnostika, baholash mezonlari, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik texnologiya, monitoring, refleksiya, kvalimetrik yondashuv, ta'lim sifati.

Abstract: Pedagogical qualimetry is considered one of the important scientific and practical foundations for developing the diagnostic culture of future teachers. The purpose of the study is to determine the possibilities of a qualimetric approach in improving the diagnostic activities of future teachers. During the research process, methods such as analysis of pedagogical, psychological, and methodological literature, as well as comparative-analytical, systematic, and competency-based approaches, were employed. As a result, the structural components of diagnostic culture, pedagogical qualimetry assessment criteria, and factors contributing to the evaluation of future teachers' professional training were identified. The study concludes that the formation of diagnostic culture based on pedagogical qualimetry is an important factor in developing teachers' professional competence.

Key words: pedagogical qualimetry, diagnostic culture, future teacher, competence, pedagogical diagnostics, assessment criteria, professional training, pedagogical technology, monitoring, reflection, qualimetric approach, quality of education.

Аннотация: Педагогическая квалиметрия рассматривается как одна из важных научно-практических основ формирования диагностической культуры будущих учителей. Цель исследования заключается в определении возможностей квалиметрического подхода в совершенствовании диагностической деятельности будущих педагогов. В процессе исследования использовались методы анализа педагогической, психологической и методической литературы, а также сравнительно-аналитический, системный и компетентностный подходы. В результате были определены структурные компоненты диагностической культуры, критерии педагогической квалиметрии и факторы, способствующие оценке профессиональной подготовки будущих учителей. В заключении обосновано, что формирование диагностической культуры на основе педагогической квалиметрии является важным фактором развития профессиональной компетентности педагогов.

Ключевые слова: педагогическая квалиметрия, диагностическая культура, будущий учитель, компетенция, педагогическая диагностика, критерии оценки, профессиональная подготовка, педагогическая технология, мониторинг, рефлексия, квалиметрический подход, качество образования.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar pedagog faoliyatining sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Zamonaviy o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ta'lim jarayonini tahlil qiluvchi, baholovchi va diagnostika asosida rivojlantiruvchi mutaxassis

sifatida faoliyat yuritishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Pedagogik diagnostika ta'lim jarayonining holatini aniqlash, o'quvchilarning rivojlanish darajasini baholash va pedagogik faoliyat samaradorligini monitoring qilish imkonini beradi. Biroq oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarni diagnostik faoliyatga tayyorlashda metodik, texnologik va baholash mexanizmlarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi kuzatilmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslarini yoritishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida diagnostik madaniyat tushunchasining mazmunini aniqlash, pedagogik kvalimetriyaning imkoniyatlarini tahlil qilish hamda diagnostik madaniyatning tarkibiy komponentlarini asoslash belgilandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik kvalimetriya zamonaviy pedagogika fanining muhim tarkibiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini ilmiy asosda baholashga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalish pedagogik hodisa va jarayonlarni miqdoriy hamda sifat jihatdan tahlil qilish, pedagogik faoliyat natijalarini o'lchash, monitoring qilish va prognozlash imkonini yaratadi. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning keng joriy etilishi pedagogik kvalimetriyaga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Chunki ta'lim sifatini oshirish, bo'lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini baholash hamda ularning amaliy kompetensiyalarini aniqlashda aniq mezon va indikatorlardan foydalanish muhim metodologik asos hisoblanadi.

Pedagogik kvalimetriya tushunchasi pedagogik jarayonni tizimli baholash bilan bir qatorda ta'lim subyektlarining kasbiy rivojlanish darajasini aniqlashga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishda kvalimetrik yondashuv samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Diagnostik madaniyat pedagogning pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini baholash, ta'lim jarayonidagi muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga doir qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Shu jihatdan pedagogik kvalimetriya diagnostik faoliyatning ilmiy-metodik asoslarini belgilab beruvchi muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur muammo bo'yicha bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, A.V. Mudrikning ilmiy qarashlarida shaxsning ijtimoiylashuvi va pedagogik faoliyatni baholash masalalari yoritilgan bo'lsa, V.P. Bepalko ta'lim texnologiyalari samaradorligini aniqlash va pedagogik jarayonni modellashtirishga alohida e'tibor qaratgan. N.F. Talyzina o'quv faoliyatini boshqarish va diagnostika qilishning psixologik-pedagogik jihatlarini tadqiq etgan. Mahalliy olimlardan B.X. Xodjayev pedagogik aksiologiya, pedagogik kompetensiya va zamonaviy pedagogning kasbiy tayyorgarligi masalalarini o'rgangan. Ushbu olimlarning ilmiy ishlari bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, diagnostik madaniyat pedagogning kasbiy faoliyatida muhim integrativ sifat hisoblanadi. U pedagogning tahliliy fikrlashi, refleksiv yondashuvi, kommunikativ kompetensiyasi va amaliy diagnostik ko'nikmalarini yagona tizim sifatida birlashtiradi. Diagnostik madaniyatning shakllanganlik darajasi o'qituvchining ta'lim sifati monitoringini olib borish, o'quvchilarning individual imkoniyatlarini aniqlash hamda pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Diagnostik madaniyat tarkibida bir necha muhim komponentlar ajratib ko'rsatiladi. Motivatsion-kompetentlik komponenti pedagogning kasbiy faoliyatga bo'lgan qiziqishi, o'z ustida ishlashga intilishi va diagnostik faoliyatga nisbatan mas'uliyatini ifodalaydi. Refleksiv-tahliliy komponent pedagogik faoliyat natijalarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularga tanqidiy yondashish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Axborot-kommunikativ komponent esa pedagogning axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishi, kommunikativ madaniyatga ega bo'lishi hamda zamonaviy raqamli platformalar orqali diagnostik faoliyatni tashkil etish ko'nikmalarini anglatadi. Amaliy-diagnostik komponent o'qituvchining turli diagnostik metodlar, testlar, monitoring vositalari va baholash mezonlaridan foydalanish bo'yicha amaliy tayyorgarligini ifodalaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida pedagogik kvalimetriya asosida diagnostik madaniyatni shakllantirish muammosini o'rganishda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar tahlili asosida muammoning nazariy jihatlari o'rganildi. Qiyosiy-tahliliy metod yordamida xorijiy va milliy tajribalar o'zaro solishtirildi hamda ularning o'ziga xos jihatlari aniqlandi. Tizimli yondashuv orqali diagnostik madaniyatning tarkibiy komponentlari yaxlit tizim sifatida tahlil qilindi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va diagnostik kompetensiyalarini rivojlantirish omillari belgilandi. Shuningdek, pedagogik kuzatish, umumlashtirish va ilmiy manbalarni interpretatsiya qilish metodlari yordamida tadqiqot natijalari tizimlashtirildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning bir qator nazariy va amaliy yo'nalishlari aniqlandi. Olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, diagnostik faoliyat pedagogning kasbiy kompetentligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida diagnostik madaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik tizimni yaratish zarurati mavjud.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, diagnostik faoliyatning tizimliliigi bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini muntazam monitoring qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida tizimli diagnostika o'qituvchining kasbiy rivojlanish dinamikasini aniqlash, mavjud kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, diagnostik jarayonning izchilligi va uzviyligi pedagogik qarorlarning ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi.

Pedagogik kvalimetriyada mezon va indikatorlarning aniqligi alohida ahamiyatga ega ekanligi tadqiqot davomida asoslandi. Baholash mezonlarining aniq belgilanishi pedagogik faoliyat natijalarini xolis va obyektiv baholash imkonini yaratadi. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik kompetensiyalarini aniqlashda kvalimetrik ko'rsatkichlardan foydalanish ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini kompleks baholashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, aniq indikatorlar asosida tashkil etilgan baholash tizimi pedagogik faoliyat sifatini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, refleksiv faoliyat diagnostik madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ldi. Refleksiya pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilishi, pedagogik vaziyatlarga tanqidiy yondashishi va kasbiy o'sish strategiyasini belgilashiga yordam beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, refleksiv yondashuvga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchilar pedagogik muammolarni tezroq aniqlaydi va samarali yechimlar ishlab chiqishga moyil bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi diagnostik jarayonlar samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Tadqiqot davomida elektron monitoring tizimlari, onlayn test platformalari, pedagogik analitika vositalari hamda raqamli baholash texnologiyalarining diagnostik faoliyatdagi imkoniyatlari tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan diagnostik jarayonlar ta'lim sifatini monitoring qilish, o'qituvchilar faoliyatini tezkor tahlil qilish va individual yondashuvni amalga oshirishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirish ta'lim sifati va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini ko'rsatdi. Mazkur yondashuv bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, diagnostik faoliyatni takomillashtirish hamda zamonaviy ta'lim talablariga mos mutaxassislarni tayyorlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirish zamonaviy pedagogik ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari diagnostik madaniyat pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ta'lim sifatini monitoring qilish va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi.

Shuningdek, kvalimetrik yondashuv asosida ishlab chiqilgan mezon va indikatorlar bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik tayyorgarligini aniqlash hamda baholash imkonini beradi. Kelgusida mazkur yo'nalishda amaliy texnologiyalar, diagnostik modellar va elektron monitoring tizimlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мудрик А.В. Социализация человека: учеб. пособие для студентов высш. учеб. зав. – М.: Издательский центр "Академия", 2006. – С. 304.
2. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – С. 192.
3. Талызина Н.Ф. Педагогическая психология. – М.: Академия, 2001. – С. 288.
4. Ходжыев В.Х. Педагогик aksiologiya. – T.: "Fan va texnologiya", 2012. – B. 168.
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2008. – B. 180.
6. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: O'qituvchi, 2003. – B. 174.
7. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish texnologiyasi. – T.: Fan, 2007. – B. 220.
8. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006. – B. 260.
9. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2006. – B. 192.
10. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. – М.: Знание, 1989. – С. 80.
11. Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результат образования. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – С. 42.
12. Yo'ldoshev J.G'. Ta'lim sifati menejmenti. – T.: Tafakkur, 2015. – B. 210.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.